



KASB-HUNAR MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNING O'QUV-BILUV FAOLIYATLARINI FAOLLASHTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIM IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Qodirova Dilnavoz Kozimovna

Nurota tuman 2-son kasb-hunar maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda kadrlarni kasbga tayyorlashni mukammallashtirishning muhim shart-sharoiti zamonaviy fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlariga asoslangan ta'lim tizimini tashkil etishdan iboratdir. Ushbu maqolada batafsil bu haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** muammoli ta'lim, ona tili, faoliyat, pedagogika, mahorat, ko'nikma, tajriba.*

Bugungi kunda o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatlarini faollashtirish yosh avlodga nafaqat fan asoslaridan chuqur va mustahkam bilim berish, balki shu bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalari va mahoratini hosil qilish, ta'lim jarayonining eng muhim vazifasini muvaffaqiyatli hal qilishga yordam berishini bilish muhimdir. Ko'p yillik tajribamdan kelib chiqib aytishim mumkinki, faqat faoliyat ko'rsatish natijasidagina o'quv til, o'quvchi til hodisalarini kuzatishi, taqqoslashi, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlashi, umumlashirishi, tilga oid bilimlardan yangi sharoitda o'z fikrini yozma va og'zaki, izchil, to'g'ri va ijodiy bayon qilishga erishishi mumkin. Ona tili mukammal bilish faqat faol faoliyat mahsulidir.

Ona tili darslarida muammoli ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatlarini faollashtirishda markaziy o'rinni egallaydi. Ona tilida tilning qonun-qoidalarini mukammal o'rganish va unga muvofiq keladigan yozma hamda og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish o'quvchilardan o'ziga xos izlanishni, qolaversa ijodiy faoliyat ko'rsatishni talab etadi. Muammoli ta'lim esa ana shunday izlanish va ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun real imkoniyat yaratadi. Bu esa o'z o'rnida uslub, shaxs va uning intellektual faoliyatini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

“Muammoli ta'lim” tushunchasi keyingi yillarda pedagogik tushunchalarimiz qatorida qo'llanayotgan bo'lsada, ammo bu o'qitish g'oyasining yuz yildan ortiqroq tarixi borligi e'tirof etiladi. Qachonki ta'lim har tomonlama ko'rsatkichi yuqori darajada, fikr yuritish qobiliyatini o'stiradigan ta'lim bo'lsagina uni rivojlantiruvchi ta'lim deb atashimiz mumkin. Agar “rivojlantiruvchi ta'lim”da o'qituvchi fikr yuritishning qonuniy rivojlanishini bilishga tayangan holda maxsus pedagogik vositalar yordamida o'z o'quvchilarini fan asoslarini o'rganish jarayonida fikrlash qobiliyati va bilish ehtiyojini shakllantirishga oid maqsadga yo'naltirilgan ish olib borsa, “muammoli ta'lim” ana shu fikrlash qobiliyati va bilish ehtiyojini vujudga



keltiradigan asosiy vosita sanaladi. O'quvchilar faoliyatini muammoli o'qitish yo'li bilan faollashtirish bilimlarni tayyor holda berish orqali o'quvchilar faoliyatini faollashtirishdan tubdan farq qiladi. Muammoli ta'lim yo'li bilan o'quvchi faoliyatini faollashtirish natijasida biz o'quvchining muayyan bir tizimda fikrlashiga erishamiz. Bunday faollikning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchi o'rganilgan materialni analiz qilib, qiyoslab, sintez qilib, umumlashtirib undan o'ziga yangi axborot oladi. Muammoli ta'limda eng avvali o'quvchining izlanuvchanlik faoliyatini jonlantirish kerak bo'ladi. Ya'ni izlanuvchanlikka asoslangan faoliyat, bu muammo yaratish, ya'ni o'quvchi uchun ma'lum bir qiyinchilikni vujudga keltirish va shu yo'l bilan uning faol fikrlash faoliyatini uyg'otish bilan boshlanadi. Yaratilgan qiyinchilikni yengish uchun o'quvchida aksariyat vaqtlarda mavjud bilimlar yetishmay qoladi. U ana shu noma'lum bilimlarni izlanishga, ijodiy faoliyat ko'rsatishga majbur bo'ladi. Izlanish o'z o'rnida o'quvchida faol faoliyatni vujudga keltiradi. Ijodiy tafakkur muammo yoki savol qo'yish bilan boshlanadi. Muammo yoki savol qo'yish muammoli vaziyatni keltirib chiqaradi. Muammoli ta'limni tashkil etishda o'quvchilarning bilim saviyasi va mustaqil ishlash darajasini hisobga olishga to'g'ri keladi. Chunki o'quvchilarni bilim saviyasi logik-lingvistik operatsiyalar bilan qurollanganlik darajasi muammoli o'quv topshiriqlarini bajarishda muhim rol o'ynaydi. Aksincha, agar o'quvchida bilim saviyasi past, mustaqil fikrlash darajasi yetarlicha shakllanmagan, logik-lingvistik operatsiyalarni muvaffaqiyatli bajara olish ko'nikmasi bo'lmasa, o'quvchi shubhasiz, muammoli vaziyatda faol faoliyat ko'rsata olmaydi.

Shunday ekan, o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatlarini faollashtirishda muammo ta'limdan foydalanarkanmiz, sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini hisobga olishimiz shart. Ya'ni, muammoli ta'limda o'qituvchi o'zlashtirishi pastroq yoki sustroq sinflarda ko'proq tushuntirish, namoyish etish va reproduktiv metodlarga zo'r berib, o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lgan sinflarda muammoli ta'lim imkoniyatlarini ishga solib ko'proq o'quvchilarning ijodiy faoliyatini vujudga keltirishga e'tibor qaratishi lozim.

Xulosa shuki, muammoli ta'lim o'quvchilarimizni ijodkorlikka, izlanuvchanlikka, mustaqil fikrlashga undar ekan, ta'lim jarayonida undan keng foydalanish davr talabidir. Zero, bugungi kunda jamiyatning har bir sohasida mustaqil yondashuvlik, izlanuvchanlik talab etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ta'lim taraqqiyotida ilm-fan hamkorligining o'rni- (professor –o'qituvchilarning ilmiy maqola va tezislar to'plami", Navoiy- 2016 yil.
2. Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim boshqaruv hamda PKQTMOI "Kasbiy ta'lim metodikasi", Toshkent- 2023 yil.



3. S.Ashurova , N.Karimova, U.Alijonov va boshqalar “Kasbiy ta’lim metodikasi” , Toshkent- “Innovatsion rivojlanish institute matbaa uyi” -2023 yil.
4. Ikromjonovna, J. S. (2024, March). Methods of Teaching Mathematics in Primary Classes. In International Global Conference (Vol. 1, No. 4, pp. 19-25).
5. Ruzmetov, B., Avezov, M., Babadjanov, J., Eshniyazova, Y., & Panjiyeva, N. (2023). Regional features of investment activeness in the Republic of Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 449, p. 04004). EDP Sciences.
6. Normahmatovna, P. N. (2021, July). The Role of Active Investment Policy in Achieving the Competitiveness of The Tourism Industry in The Region. In E-Conference Globe (pp. 144-152).
7. Панжиева, Н. Н. (2023). Внедрение Туристических Инноваций Зарубежных Стран. In Актуальные аспекты теории и практики развития индустрии туризма, гостеприимства и сервиса (pp. 194-199).
8. Khasanova, F. (2022). The Formation and Formation of The Chinese Language Baihua as The Basis of The Modern Chinese Language. Sharq Mash'ali, (01), 21-23.
9. Jumanova, S. I., & Mullaboyeva, G. (2023). Bolalarni Maktab Ta’limiga Tayyorlashda Sharq Va G ‘Arb Allomalarining Qarashlaridan Foydalanish. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 445-451.
10. Ikromjonovna, J. S., & Husanovna, Y. L. S. (2023). Maktabgacha Ta’lim Tashkilotlarida Sog ‘Lom Ovqatlanishni Tashkil Etish. Образование Наука И Инновационные Идеи В Мире, 34(6), 85-90.
11. Qo, J. S. I., & Gulbahor, M. (2023). Maktabgacha Ta’lim Tashkilotlarida Tarbiyalanuvchilarni Maktab Ta’limiga Tayorlashning Pedagogik Asoslari. Qo ‘Qon Universiteti Xabarnomasi, 8, 98-100.
12. Pedagogika nazariyasi va tarixining ayrim doilzarb muammolari (Yosh olimlar, aspirantlar va magistrnlarning ilmiy- uslubiy maqolalar to’plami), “Fan” nashriyoti- 2006-yil.